



Bola xulqida negativ sifatlar shakllanishiga oilaviy munosabatlarning ta'siri

Mullayeva Maxbubaxon Axmadovna

Farg`ona viloyati Yozyovon tumani

MMTB tasarrufidagi 28-sonli umumiy

o`rta ta`lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola shaxsining rivojlanishida oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti hal qiluvchi omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, bolada negativ xulqiy sifatlar – tajovuzkorlik, yolg'onchilik, befarqlik, o'ziga ishonchsizlik kabi holatlarning shakllanishida oilaviy munosabatlarning bevosita ta'siri yoritiladi. Ota-onaning muomala uslubi, mehr-muhabbat darajasi, intizomga yondashuvi, oiladagi nizolar va emotsional muvozanat bolalarning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bola xulqi, negativ xatti-harakat, oilaviy muhit, ota-onalik munosabatlari, psixologik muvozanat, shaxs rivojlanishi, oilaviy nizolar, bolalarga tarbiya, emotsional muhit, shaxsiy o'rnak, salbiy odatlar.

Oila jamiyat taraqqiyotida, yoshlar tarbiyasida, keksa avlodni qo'llab quvvatlashda birinchi o'rinda turadi. U har bir insonning ishonchli tayanchi va qo'llab quvvatlash manbai bo'lgan va shunday bo'lib qoladi, onalik va otalik baxtini beradi, yosh avlodning xarakteri va hayotiy qadriyatlarini tarbiyalaydi va shakllantiradi.



Oila bola shaxsiyatining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi, unga ijtimoiy o'zaro munosabatlar, hissiy yordam va ta'limning asosiy tajribasini beradi. Oilaning ijobiy ta'siri bolaning o'ziga ishonchini rivojlantirishga, boshqalar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishga va uning jamiyatdagi xatti-harakatlarini boshqaradigan qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Lekin, bola shaxsini shakllantirishda oila muhim rol o'ynashiga qaramay, oiladagi muhit har doim ham faqat ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ayrim salbiy omillar bolaning hissiy holatiga, o'z-o'zini qadrlashiga, ijtimoiy ko'nikmalariga va umumiy shaxsiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga ko'ra, oilada bolaning barkamol rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi asosiy salbiy jihatlar mavjud. Masalan, mojarolar va hissiy taranglik. Oiladagi nizolar va hissiy stresslar bolaning shaxsi rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oila bolaning o'sib-ulg'ayishining asosiy muhiti sifatida uning hissiy holatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar oilada tez-tez nizolar bo'lsa yoki doimiy hissiy taranglik davom etsa, bu bola uchun noqulay sharoitlarni yaratadi, bu uning normal psixo-emotsional rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bizga ma'lumki, bola shaxsiyati uni o'rab turgan voqelik ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vazifalarni anglay boshlaydi va jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa bola shaxsining ijtimoiylashuvi tugallanadi.

Shu bilan birga bola shaxsi ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirish, ta'lim olish, vaqtlar o'tishi bilan ma'lum bir mutaxassislikni egallash natijasida shakllanib boradi. Bolalar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarga ta'sir etuvchi ob'ektiv omil to'g'risida pedagog olim B.Umarov ushbu fikrni ilgari suradi: "Ob'ektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog'lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiypsixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar..." ni e'tirof etadi. Demak, bolalar ruhiyatidagi o'zgarishlar ham avvalo uni o'rab turgan nosog'lom muhit



ta'sirida sodir bo'ladi. Ma'lumki, oila bola uchun ilk ijtimoiylashuv markazidir. Aynan shu markazda bola ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirishadi, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shular asosida bolaning xulq-atvori shakllanib boradi. Ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning u yoki bu ko'rinishi ya'ni oiladagi xotirjamlik yoki kelishmovchilik, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xususiyati bolaning xulq-atvorini belgilab beruvchi omillar sirasiga kiradi. Ayniqsa, bunda oiladagi nizolar, ota-onalardan birining nomaqbul xulq-atvori va ularning farzand tarbiyasiga nisbatan befarqligi, qattiqqo'lligi natijasida sodir bo'ladi. Bu borada mashhur psixolog olim Getting tadqiqotlariga nazar tashlashkifoya. Uning fikricha oilalardagi muammo va nizolar bolalardagi agressivlikni keltirib chiqarishi, ayniqsa, ularning qahrli, jahldor, qo'pol bo'lib voyaga yetishiga sabab bo'ladi. Gettingning xulosalariga ko'ra, mojaroli oilalalarda asosiy e'tibor o'zaro ziddiyatlarga qaratiladi, bola tarbiyasi esa tahdid va jazolashdan iborat bo'lib qolaveradi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy hususiyatimizdan biridir. Xuddi shunday bugungi kun har bir oilasi va jamiyat oldida turgan muhim vazifa ham shu hisoblanadi. Ota-ona farzand ko'rish va uni tarbiyalash orzusi bilan yashar ekan, uning kelajakda yetuk inson, komil shaxs bo'lishini istaydi. Bu masala har bir pedagog, ta'lim muassasining ham jamiyat oldidagi burchi bo'lib, ota-ona kabi ustozlar ham shogirdlarini yetuklik sari da'vat etadi. Demak, oqil farzand nafaqat ota-ona, balki ustoz, qolaversa jamiyatning, yurtning baxtu-iqbolidir.

Umuman olganda bolalar ruhiyatidagi o'zgarishlar biror-bir shaxsga xos sub'ektiv xulqatvor natijasi emas, balki sub'ektiv va ob'ektiv omillar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Bolalar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablari bir necha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- oiladagi ahloqsizlik munosabatlari;



- ota-onalarning bola tarbiyasiga befarqligi;
- oilaviy janjallar;
- badavlat oila;
- kambag'al oila;
- yuqori darajadagi stress;
- ota-onalarning bolalariga bo'lgan zo'ravonlik munosabatlari;
- asotsial, ruhiy nosog'lom ota-onalar;
- ota-onalarni alkogol moddalar iste'mol qilishi.

Psixologiya nuqtai nazaridan bola ruhiy sog'lom rivojlanishi va tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun ehtiyojlari doirasida to'liq qondirilishi kerak: - Ota-onasi g'amxo'rliqi va e'tiboriga ehtiyoj;

- Emotsional sohasidagi ehtiyohlari;
- Ijtimoiy bilishi ehtiyoji;
- Bolani ijtimoiy hayotga jalb qilinishi bilan bog'liq ehtiyojlar.

Bola hayotidagi ilk tarbiyani oilada oladi. Shu bilan birgalikda uning ruhiy shakllanishi hham oiladan boshlanadi. Shunday ekan, eng avvalo ota-ona o'zining namunali xulq-atvori bilan farzandiga o'rnak bo'lishi lozim. Chunki bola eshitganidan ko'ra ko'proq ko'zi bilan ko'raniga amal qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbeklar oila haqida: munosabat va ustuvorliklar. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi. <https://ijtimoiyfikr.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent:O‘zbekiston, 2020. –B.148
5. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar /Uslubiy qo‘llanma/. –Toshkent, 2012.–B.6
6. Qurbonovich, Abdullaev Oybek. "Development of Mentally Stable Qualities in Adolescent Students Through Physical Educational Means." European Journal of Humanities and Educational Advancements 2.12(2021): 141-145.
7. Kurbanovich, Abdullayev Oybek. "Innovative technologies in physical education classes." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.6 (2021): 92-95.